



**UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA SERTIFIKATLASHTIRISH  
VA  
BILIM DARAJASINI BAHOLASHNING MILLIY TEST TIZIMI**



**ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN BILISH DARAJASINI  
BAHOLASHNING MILLIY TEST SINIVI**

**TEST TOPSHIRIQLARI KITOBINI**

**Test-savollari kitobi 3 bo'limdan iborat:**

- 1 – BO'LIM. 1-20-savollar: O'qib tushunish**
- 2 - BO'LIM. 21-40-savollar: Adabiyot**
- 3 - BO'LIM. 41-52-savollar: Yozma savodxonlik**

**Umumiy vaqt: 3 soat**

**Guruh nazoratchilarining ko'rsatmasiga amal qiling!**

**Test jarayoni tugaganidan so'ng test topshiriqlari kitobi va javoblar varaqasini guruh nazoratchilariga topshiring!**

**Imtihon xonasidan test materiallarini olib chiqib ketish taqiqlanadi!**

**Test topshiriqlari kitobini guruh nazoratchisi ruxsat bergandan so'ng oching!**

---

*(Talabgorning to'liq ismi va familiyasi)*

---

*(Imzo)*

## **1-BO‘LIM. O‘QIB TUSHUNISH**

**Ushbu bo‘lim 2 qismdan iborat:**

**1-qism:** 1-10-savollar

**2-qism:** 11-20-savollar

**Tavsiya etilgan umumiy vaqt:** 1 soat

Ushbu test topshiriqlari kitobidan qoralama sifatida foydalanish mumkin.

Belgilangan vaqt ichida javoblar varag‘iga javoblaringizni ko‘chiring.

Javoblar varag‘iga javoblaringizni ko‘chirish uchun qo‘shimcha vaqt berilmaydi.

## 1-qism

### Quyidagi matnni o'qing va-savollarga javob bering.

Tog'ay Murod adabiyotga tutab emas, yonib kirdi. Tog'ay Murod qissalari sof milliy o'zbek qissalari. Tog'ay Murod qissalarida tasvirlangan odamlarga boshqa xalq libosini kiydirsangiz ham, o'zbekligi bilinib turadi. Ularning xulq-atvori ham boshqa xalqqa aslo o'xshamaydi. Shu vaqtgacha qiyofasi noaniq, biri-biridan farq qilmaydigan, shapka kiydirsang rus, qorako'l papaq kiydirsang, ozarbayjon, telpak kiydirsang, qozoq, yoqasiga kashta tikilgan ko'ylak kiydirsang, ukrain bo'lib ketaveradigan **taxminiy odamlar** qissalarimizning asosiy qahramonlari bo'lib keldi. Bu o'z xalqining milliy urf-odatlarini, his-tuyg'ularini bilmaslikdan bo'ldi, so'qirko'ngillik, so'qirko'zlikdan bo'ldi. Biz Abdulla Qodiriy, salkam yetmish yildirki, boshimizga ko'tarib kelamiz. Bunga sabab Qodiriy milliy qahramonlar yaratdi. Otabek ham, Yusufbek hoji ham, Oftob oyim ham, Solih mahdum ham aslo takrorlanmas obrazlardir. Bu kishilar to'g'risida Qodiriy ta'kidlamasa ham, o'zbekligini bilamiz. Turgenev, Gogol, Tolstoy rus xalqini butun bor bo'yi bilan tasvirlagan buyuk ijodkorlardir. Nexlyudovga do'ppi kiydirsang, Kareninaga paranji yopintirsang, o'zbek bo'lib qolmaydi. Tolstoy ularni qon-qoni bilan, o'y-xayollari bilan, gap-so'zlari bilan rus qilib yaratdi.

Bunday asarlar yaratish uchun adib rassomdek ranglarni bir-biridan farq qiladigan, bastakordek tovushlarni aniq eshitadigan bo'lishi kerak. Tog'ay Murod ana shunday rassom adibdir, ana shunday bastakor adibdir. Mana, u «Ot kishnagan oqshom»da otni qanday tasvirlaydi: «Birodarlar, o'zi, Bo'z ot qanday bo'ladi? Surpday oppoq bo'ladi. Bordi-yu ajdodida bo'lsa, to'qqizga to'lganda Tarlon bo'ladi. To'qqiz yoshida Bo'zning badanida xolday-xolday qora donalar paydo bo'ladi. Shundan boshlab u Bo'z emas, Tarlon ot bo'ladi. Tarlon — xol-xol ot! Tarlon — otlar sarasi. Birodarlar, To'riq otning yuzdan biri yaxshi bo'ladi. Tarlon otning yuzdan biri yomon bo'ladi! Birodarlar, ot tanimasang, Tarlon ol!..»

Talantli adib qalamidan to'kilgan ushbu satrlarni o'qirkanman, xayolimdan bir gap o'tdi. «Dom»da yashab umrini o'tkazgan shaharliklarni o'yladim. Inson bolasining uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilgan bu jonivorni faqat sirkda, kinoda ko'rgan shaharlik ukalarimizga adibning bu so'zlari qanchalik ta'sir qilishini bilaman. Shahar bolalarining tabiatdan, jonivorlardan qanchalik uzoqlashib qolganliklariga achinib ketaman. Tog'ay Murod otni shu qadar mehr bilan ta'riflaydiki, «adib qo'shiq aytayotibdi» deb o'ylaysiz. Adib ko'ngli kitobxon ko'ngliga ko'chib o'tadi. Ot minib adirlarda yelday uchgingiz, ot yollarini silagingiz keladi. «Birodarlar, mashina deganlari temir! Joni yo'q! Joni yo'q temir odamga el bo'lmaydi! Temirning yuragi yo'q-da! Ot odamga el bo'ladi! Boisi otning joni bor, yuragi bor-da!»

Tog'ay Murodning Tarloni Tolstoyning Xolstomeri, Aytmatovning Gulsarisi qatoriga kelib qo'shildi. Bu gapimga ba'zi bir tanqidchilar jindek g'ashlik qilar. Na iloj, oldingdan oqqan suvning qadri yo'q, deyдилar...

Tog‘ay Murod o‘z ona tilini benihoya yaxshi biladi. Bilgandayam butun ranglari bilan, ohanglari bilan biladi. Shu bois sof o‘zbekcha bitadi. Tog‘ay Murod o‘zbek tilini kuylatdi. O‘zbek tilining jami jilvalarini oftobga solib ko‘rsatdi: «Ayo Tarlon, sen mening akamsan. Uka desa degulik mendayin ukang bor, aka desa degulik sendayin akam bor, nima g‘amim bor? Ayo Tarlon, sen mening birodarimsan, qiyomatlik birodarim...» Ushbu satrlarni o‘qib bo‘lgach, xayolga tolasiz. Hozirgina mungli bir qo‘shiq tinglagandek bo‘lasiz.

Sharqning buyuk dostonlari “Layli va Majnun”, «Farhod va Shirin»lar, «Tohir va Zuhro»lar necha yuz yillardan beri yashab keladi. Ularda bir-biriga yetisholmay, muhabbat yo‘lida jon bergan baxtsiz oshiq-ma’shuqlar tasvirlanadi. Tog‘ay Murod ham doston yozdi. Otini «Oydinda yurgan odamlar» qo‘ydi. Qissa nomini o‘qishingiz bilanoq sizni allaqanday sirli-sehrli oydin kecha bag‘riga oladi. Ichingizga ajib bir nur o‘rmlab kiradi. Dil-dilingizni yoritib yuboradi. Qissada Qoplon bilan Oymomo farzand ilinjida tunni tongga, kunni oyga, oyni yilga ulab yashaydi. Qoplon xotinini “Momosi” desa, Oymomo erini “Bobosi” deb chaqiradi. Ular yo‘q bolaning bobosi, yo‘q bolaning momosi bo‘lib, yillarni yillarga ulaydi. Bir-biriga mo‘ltirab yashaydi. Ular uchramagan doktor, ular ko‘rinmagan tabib qolmaydi, ammo na doktordan, na tabibdan naf ko‘radi. Tog‘ay Murod chol-kampir hayotini g‘oyat nozik, g‘oyat shoirona tasvirlaydi. Chol-kampirning o‘zaro mehr-muhabbatini qo‘shiqdek kuylab beradi. Tog‘ay Murod bir-birini “Bobosi”, “Momosi” deya atab umr o‘tkazayotgan bir juft pokiza insonni oydindagi oy nuriga o‘rab tasvirlaydi. Oqibatda ushbu juftning o‘zi ham, so‘zi ham, turish-turmushi ham oyning kumush nurlariga yo‘g‘rilib ketadi. Tog‘ay Murodning kuyib-yonib, o‘rtanib bitgan, ba‘zan faryod urib bitgan «Oydinda yurgan odamlar» qissasini «Muhabbat qo‘shig‘i» deb atagim keldi. Nazarimda, Tog‘ay Murod qissa bitmaydi, bor ovozi bilan qo‘shiq aytadi. Bu qo‘shiqda avj pardalar bor, nolishlar bor, savt bor.

**1-savol.** Matn asosida quyidagi savolga javob bering.

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

Tog‘ay Murod qaysi asarida tirnoqqa zor insonlar obrazini yaratgan?

**Javob:** \_\_\_\_\_

**2-savol. Savolni o‘qing va faqat bitta to‘g‘ri javobni tanlang.**

Matnda muallif “taxminiy odamlar” so‘z birikmasi orqali kimlarni nazarda tutgan?

- A) qissalarning asosiy qahramonlarini
- B) milliy qiyofasi noaniq obrazlarni
- C) boshqa millat libosini kiygan kishilarni
- D) turli millat vakillarini

**3-5-savollar. Berilgan gaplarni mos ravishda (A-E) to‘g‘ri yakunlang. Diqqat! Berilgan javoblardan (A-E) 2 tasi ortiqcha.**

<b>3-savol.</b> Bo‘z ot ...	A) ... faqat sirk tomoshalari uchun boqiladi.
<b>4-savol.</b> Tarlon ot ...	B) ... ma’lum yoshdan so‘ng boshqacha atalishi mumkin.
<b>5-savol.</b> To‘riq ot ...	C) ... ning yaxshisi juda kam bo‘ladi.
	D) ... odamga el bo‘lmaydi.
	E) ... otlarning eng yaxshisi hisoblanadi.

**6-savol. Savolni o‘qing va faqat bitta to‘g‘ri javobni tanlang.**

Matnda quyidagi qaysi fikrga ayrim tanqidchilar e‘tiroz bildirishlari mumkinligi aytilgan?

- A) Tog‘ay Murod singari jaydari bir o‘zbek adibi Lev Tolstoy va Chingiz Aytmatovlardan ham ustunroq.
- B) Tog‘ay Murod ot tasvirni yaratishda Lev Tolstoy va Chingiz Aytmatovlardan ilhomlangan.
- C) Tog‘ay Murodning otni tasvirlash mahorati Lev Tolstoy va Chingiz Aytmatovlar ijodiy salohiyati bilan tenglasha oladi.
- D) Tog‘ay Murod ham Lev Tolstoy va Chingiz Aytmatovlar kabi mashinani jonsiz, yuraksiz temir, deya tasvirlagan.

**7-savol. Savolni o‘qing va faqat bitta to‘g‘ri javobni tanlang.**

Matnda Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” asariga tegishli bo‘lgan qanday xulosa bayon qilingan?

- A) Qissada muallif mashina odamga do‘st bo‘lmasligi, shuning uchun faqat ot minish kerakligiga urg‘u beradi.
- B) Qissada muallif insonlarning uzog‘ini yaqin qiladigan, sadoqatli jonivorlarni o‘z jigarlariga tenglashtiradi.
- C) Qissada shaharliklar otlarni faqat kinolardagina ko‘rganligi bayon qilinadi.
- D) Qissada muallif otlarning rasmini ham chizadi, ya‘ni o‘zining rassomligini namoyon etadi.

**8-9-savollar. Berilgan ma‘lumotlarni o‘qing va to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.**

**8-savol.** Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asari doston janriga mansub.

- A) to‘g‘ri
- B) noto‘g‘ri

**9-savol.** Tog‘ay Murod yozuvchilikdan tashqari rassomlik va qo‘shiqchilik ham qilgan.

- A) to‘g‘ri
- B) noto‘g‘ri

**10-savol. Quyidagi topshiriqni bajaring. Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.**

**Diqqat! Javobingiz 10-15 ta so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.**

Matnga asoslanib, Tog‘ay Murod qissalari qahramonlarining boshqalardan ajralib turuvchi o‘ziga xos jihatini yozing.

---

---

## 2-qism

### Quyidagi matn asosida 11-20-savollarga javob bering.

Kamalak tabiatning eng go‘zal hodisalaridan biridir. Odamlar qadim zamonlardan beri uning qanday hosil bo‘lishi haqida bosh qotirib kelishadi.

Ayrim kishilar kamalakni “yomonlik alomati” deb bilishgan. Ular “marhumlarning joni narigi dunyoga kamalak orqali o‘tadi, kamalak paydo bo‘lganda kimdir o‘ladi”, deb hisoblashgan. Natijada kamalak haqida ko‘plab tasavvurlar, afsona va ertaklar paydo bo‘lgan. Masalan, qadimgi yunonlar kamalakni osmon bilan yer o‘rtasidagi yo‘l deb hisoblaganlar. Xitoyliklar esa kamalakni osmondagi afsonaviy katta ilon deb o‘ylashgan. Slavyan xalqlari uni samoviy ko‘prik deb tushunganlar. Go‘yo daryolardagi suv bu ko‘prik orqali osmonga olib chiqilar ekan-u, keyin bu suv yomg‘ir bo‘lib yerga yog‘arkan. Texnik jihatdan qaralganda, atmosferadagi nur tomchi orasidan o‘tganda kamalak paydo bo‘ladi va nurning sinishi, ya‘ni turli rangdagi egilgan yoy hosil bo‘lishiga olib keladi. Ko‘pincha kamalak ertalab yoki shomda paydo bo‘ladi. Kamalak hosil bo‘lishi uchun quyosh nuri taxminan  $42^\circ$  burchakda yomg‘ir tomchisiga tushib qolishi kerak. Bu holat quyosh osmonda  $42^\circ$  dan balandroq burchakda turganida ro‘y bermaydi.

Kamalakni qorong‘i tushishi bilan ham uchratish mumkin. Bunday holat “oy kamalagi” deb ataladi. Bunday vaziyatda yorug‘lik nurlari to‘g‘ridan to‘g‘ri oydan aks olganida vujudga keladi. Odatda, u juda yorqin bo‘lmaydi, chunki yorug‘lik qanchalik yorqin bo‘lsa, kamalak shunchalik rang-barang bo‘ladi. Muayyan yomg‘ir tomchilaridan aks urgan yorug‘lik, boshqa tomchilardan har birimiz uchun boshqa-boshqa burchakdan aks beradi. Aynan shu holat kamalakning turli ko‘rinishlarini hosil qiladi. Ikkita odam bitta joyda bir vaqtning o‘zida bo‘la olmasligi kabi turli odamlar bitta kamalakni bir xil ko‘ra olishmaydi. Hatto bizning har bir ko‘zimiz har xil kamalakni ko‘radi.

Kamalakka qaraganimizda u biz bilan birga harakatlanayotgandek tuyiladi. Bu uni shakllantiradigan yorug‘lik muayyan vaqtda, muayyan masofa oralig‘ida va kuzatuvchi uchun muayyan burchak ostida amalga oshganligi uchun sodir bo‘ladi. Kamalakning ranglari qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, havorang, ko‘k va binafsharanglardan iboratdek ko‘rinadi, **ammo** aslida kamalak inson ko‘zi ko‘ra olmaydigan ranglarni o‘z ichiga olgan millionlab ranglardan iboratdir. Quyosh nuri yoki oddiy oq nur barcha ranglarni o‘zida jam etgan. Siz qiya turgan ko‘zguning bir chetiga yoki sovun pufagi yuzasiga nur tushganini hech kuzatganmisiz? Oq nur turli ranglarga bo‘linib ketadi. Shunda biz kamalak jilosini ko‘ramiz. Nurni turli ranglarga ajratuvchi narsa «prizma» deb ataladi. Hosil bo‘lgan ranglar o‘zaro birikib ketuvchi chiziqlar hoshiyasini hosil qiladi va bu «spektr» deb ataladi. Kamalak katta egilgan spektr yoki yomg‘ir tomchilari orqali o‘tib sinadigan nurning rango-rang chiziqlaridan iborat tasmadir. Bu holda yomg‘ir tomchilari prizma vazifasini bajaradi.

Kamalak kuchli yomg‘ir yog‘ayotganda chiqadi, chunki bu vaqtda bir tomondan yomg‘ir yog‘ayotgan, boshqa tarafdin esa quyosh charaqlab turgan bo‘ladi. Kamalakni ko‘rish uchun siz quyosh va yomg‘irning oralig‘ida bo‘lishingiz lozim. Quyoshdan

tushayotgan nurlar yomg'ir tomchilariga tushib spektr hosil qiladi. Quyosh, sizning ko'zlaringiz va kamalak markazi bir chiziqda bo'lishi kerak. Quyosh nurlari yomg'ir tomchilaridan o'tadi. Tomchi esa prizmagga o'xshab ishlaydi, ya'ni u quyoshning oq nurlarini qizil, olovrang, sariq, yashil, havorang, ko'k va siyohrang nurlarga ajratadi. Aslida oq nur mana shu ranglardan iborat bo'ladi. Tomchi prizmagga o'xshab uni shu ranglarga bo'lib beradi, xolos. Natijada spektr deb nomlanadigan rangli tasma hosil bo'ladi. Demak, kamalak bu ulkan egilgan spektrdir. Ilk bor kamalak nimaligini tushuntirib bergan olim Arastudir. U: "Kamalak moddiy jism emas, balki optik hodisadir",– degan. Yerdan turib kamalakka qarasangiz, u aylananing bir bo'lagiga – yoyga o'xshaydi. Tog' tepasidan yoki samolyotdan turib qaralsa, yarim aylana shaklidagi emas, balki dum-dumaloq aylana shaklidagi kamalakni ko'rish mumkin. Xo'p, yarim aylanami, to'liq aylanami, nega kamalak aynan shunday shaklda? Nega, masalan, yerdan osmonga qarab ketgan tikka tasma shaklida emas? Buning sababini yomg'ir tomchilarining shaklidan qidirishimiz kerak. Suv tomchilari qanaqa ko'rinishda bo'ladi? Ular sferani, ya'ni dumaloq shaklni eslatadi. Tomchi dumaloq bo'lgani tufayli unda singan nurlar ham aylana shaklidagi, ya'ni biri ikkinchisining ichidagi rangli nurlarni hosil qiladi. Yomg'ir tomchilari qanchalik katta bo'lsa, kamalakning ranglari shunchalik yorqin bo'ladi. Lekin bu kamalak ensiz, ingichka bo'ladi. Maydalab yomg'ir yog'ayotganda ko'rinadigan kamalak esa enli, keng bo'ladi, ammo ranglari biroz xira bo'ladi. Demak, siz kamalakka qarab qanaqa yomg'ir yog'ayotganini, bu yomg'ir tomchilari katta yoki kichikligini bilib olishingiz mumkin ekan.

Ha, kamalak nafaqat chiroyli, balki juda ajoyib tabiat hodisasidir!

### **11-savol. Savolni o'qing va faqat bitta to'g'ri javobni tanlang.**

Kamalak qanday shaklda bo'ladi?

- A) faqat yarim aylana shaklida
- B) yarim aylana va to'liq aylana shaklida
- C) yoy shaklida va pastdan tepaga qarab ketgan tasma shaklida
- D) pastdan tepaga qarab ketgan tikka tasma shaklida

### **12-savol. Savolni o'qing va faqat bitta to'g'ri javobni tanlang.**

Quyidagi qaysi so'z matnda qo'llangan **tomchi** so'zi bilan ma'nodosh bo'la oladi?

- A) qatlam
- B) qatim
- C) qatla
- D) qatra

### **13-savol. Savolni o'qing va faqat bitta to'g'ri javobni tanlang.**

Matnda ajratib ko'rsatilgan **ammo** yordamchi so'zi qanday mazmuniy vazifa bajargan?

- A) Ushbu so'z kamalak aslida biz ko'ra olmaydigan ko'plab ranglardan iborat ekanligini anglatish uchun qo'llangan.



- B) Ushbu soʻz aslida kamalak faqat yetti xil rangdan iborat ekanligini anglatish maqsadida qoʻllangan.
- C) Ushbu soʻz quyosh nurining sinishi natijasida kamalakning yetti xil rang jilosi osmondagina kuzatilishini anglatish uchun qoʻllangan.
- D) Ushbu soʻz oddiy oq nur ichida kamalakning yetti xil rangi mavjud emasligini anglatish uchun qoʻllangan.

**14-16-savollar.** Har bir jumla uchun quyidagi jadvalda koʻrsatilgan mos gap yakunini toping.

**Diqqat! Javoblardan 2 tasi ortiqcha.**

Qadimgi xalqlar (14-16-savollar) kamalakni qanday tasavvur (A-E) qilganlar?

<b>14-savol.</b> Chinliklar	<b>A)</b> osmoniy koʻprik
<b>15-savol.</b> Yunonlar	<b>B)</b> osmon-yer yoʻli
<b>16-savol.</b> Slavyanlar	<b>C)</b> yomonlik alomati
	<b>D)</b> samoviy ulkan ilon
	<b>E)</b> samoviy daryo

**17-18-savollar.** Savollarni oʻqing va har bir savolga faqat bitta toʻgʻri javobni tanlang.

**17-savol.** Kamalak ranglarining yorqinligi nimaga bogʻliq?

- A) yomgʻir tomchilarining kattaligi va quyosh nuriga
- B) insonning koʻrish qobiliyati va ranglar uygʻunligiga
- C) tasavvurning boyligi va sutkaning yorugʻ qismiga
- D) biz kuzatayotgan joy va yomgʻir yogʻayotgan faslga

**18-savol.** Nima sababdan yonma-yon turgan ikkita odam bitta kamalakni bir xil koʻrinishda koʻra olmaydi?

- A) Bu ularning ilmy tasavvuriga bogʻliq.
- B) Bu ularning koʻrish burchagiga bogʻliq.
- C) Bu sutkaning qaysi qismi ekanligiga bogʻliq.
- D) Bu yilning qaysi fasli ekanligiga bogʻliq.

**19-20-savollar.** Berilgan maʼlumotlarni oʻqing va toʻgʻri yoki notoʻgʻri ekanligini aniqlang.

**19-savol.** “Oy kamalagi”ning yorqin emasligiga sutkaning qorongʻi qismida yorugʻlik nurlarining bevosita Quyoshdan aks olmasligi sabab boʻladi.

- A) toʻgʻri
- B) notoʻgʻri

**20-savol.** Nurning xilma-xil ranglarga ajralishi natijasida “prizma” hosil boʻladi.

- A) toʻgʻri
- B) notoʻgʻri

## II BO‘LIM. ADABIYOT

**Mazkur bo‘lim 3 qismdan iborat:**

**1-qism:** 21-28-savollar

**2-qism:** 29-34-savollar

**3-qism:** 35-20-savollar

**Tavsiya etilgan umumiy vaqt:** 1 soat

Ushbu test topshiriqlari kitobidan qoralama sifatida foydalanish mumkin.

Belgilangan vaqt ichida javoblar varag‘iga javoblaringizni ko‘chiring.

Javoblar varag‘iga javoblaringizni ko‘chirish uchun qo‘shimcha vaqt berilmaydi.

## I qism

### Quyidagi matn asosida 21-28-savollarga javob bering.

Agar dunyoda ikkita beozor odam bo'lsa, bittasi Ermon buva. Agar dunyoda ikkita beozor odam bo'lsa, yana bittasi – Ermon buvaning kampiri – Habiba buvi. Mabodo dunyoda ikkita yuvosh sigir bo'lsa, bittasi Ermon buvaning ola sigiri. Agar shunaqa sigir dunyoda bitta bo'lsa, shu sigirning o'zi.

Ermon buva bahor paytlari ola sigirini yetaklab kelib qoladi. Qo'lida hassa, sigirining butun shoxiga tuguncha ilib qo'yilgan. O'tloqqa yetganidan keyin sigirning shoxidagi tugunchani oladi-da, o'zini qo'yib yuboradi. Belidagi qiyiqchasini tol soyasiga tashlab “bismillohu rahmonur rahim” deb maysa ustiga yonboshlaydi. Ola sigir shundoqqina uning yonida poyezddek pishillab o'tlashga tushadi. Ora-chora “shu ishim ma'qulmi”, degandek egasiga qarab-qarab qo'yadi. Shunaqa yuvosh sigirki, bolalar tagiga kirib emsa ham “hoy, nima qilyapsan?” deb qayrilib qaramaydi. Dasturxonda zog'ora nonmi, arpa nonmi bo'lgan kuni hammamizga bayram. Ko'pincha unisiyam bo'lmaydi, bunisiyam. Biroq tutmayiz albatta bo'ladi. Tutmayizni yeb olsangiz, darrov qorningiz to'yadi. Shunaqa shirin, shunaqa mazali! Men bir kaft mayizni og'zimga tashlayman-u, uyga g'irillayman. Oyim albatta choy damlab qo'ygan bo'ladi. Olma choymi, boshqami, ishqilib choy-da! Shundoq qilib, hammamiz birgalashib ovqatlanamiz. Oxirida Ermon buva dasturxonga fотиha o'qiydi.

– Yaratgan ne'matingga shukur! – deydi ingichka ovozda. – Ilohi omi-in! Yurtimiz tinch bo'lsin, u dunyo-yu bu dunyo qirg'inbarot bo'lmasin, ollohu akbar!

Ana undan keyin Oltmishvoyning ta'rifi boshlanadi. Oltmishvoy – Ermon buvaning o'g'li. Habiba buvi ko'p tug'gan. Hammasi chillasi chiqmasdan o'lib ketgan. Ammo Oltmishvoy boshqacha yigit-da! Bittayam kasal bo'lmagan. Menday paytida otni egarlab o'zi choptirgan. Jo'raboshimizday bo'lganida ketmon bilan bir tanob yerni hash-pash deguncha ag'darib tashlagan. Oltmishvoy – ana shunaqa yigit! Avvaliga Habiba buvi oltmishta tug'gani uchun Oltmishvoyning oti shunaqa deb o'ylagan edim. Yo'q, keyin tushundim. Oltmishvoy Ermon buva oltmishga kirganda tug'ilgan ekan.

– Mening Oltmishvoyimdaka yigit dunyoda yo'q, – deydi Ermon buva har kungi gapini qaytarib. – **Bunaqa yigitni xudo bitta yaratgan-u, qolipini sindirib tashlagan!** – U o'zining hikoyasidan o'zi zavqlanib ketadi. Nosqovog'idan kaftiga mo'lroq solib tilining tagiga tashlaydi. – Mana, hozir nemisning dodini berib yuribdi. O'ziyam **Azob dengiz** degancha bor-da, tasadduq! Bir shamol tursa bormi, har suv ko'tariladiki, tog'dek keladi. Ammo mening Oltmishvoyim azobdan qo'rqmaydi. Rosa savalayapti, pashist demaganni! Kamandiri mazasi yo'q bola ekan! Oltmishvoy giroy bo'lib o'ldi, deb yozibdi... – Ermon buva birdan jimib qoladi. Oppoq quyuc qoshining tagidagi ko'zlari negadir yiltirab ketadi. Kuladimi, yig'laydimi hech kim bilmaydi. – Mana, meni aytdi dersizlar, – deydi ovozi titrab. – Erta-indin kirib keladi. Qo'sha-qo'sha ordin taqib kirib keladi. O'shanda kamandiriga xat yozaman. Oltmishvoyga aytib turaman, o'zi yozadi. Sen bola, diyman, mazasi yo'q bola ekansan, diyman. Mana, Oltmishvoyim keldi-ku, giroy bo'lib kirib keldi-yu, deyman.

Shunday qilib, Ermon buva har qachon Oltmishvoyni gapirganida oyimga ergashib ularnikiga borganim esimga tushadi. Tokchalarga eski barkashlar bezak qilib qo'yilgan

xonaga kirishim bilan eng avval nonga ko‘zim tushdi. Bunaqangi chiroyli nonni birinchi ko‘rishim edi. Ustiga sedana sepilgan, qip-qizil patir non. Qiziq, nonni negadir devorga mixlab qo‘yishibdi. Bir chekkasi kemptik.

– Oyi-i, non! – dedim yalinib.

Oyim yarq etib qaradi-yu, labini tishlab bosh chayqadi. Bildimki, onam uyalyapti. Endi Habiba buviga tarmashdim. Bilaman, dunyoda Habiba buvidan saxiy odam yo‘q.

– Buvi, non, – dedim yana o‘sha ohangda. Devordagi nonni ko‘rsatdim. – Buvi, no-o-on!

Qiziq, negadir Habiba buvi bu safar saxiylik qilmadi.

– Bu nonga tegib bo‘lmaydi, ko‘paygur, – dedi boshimni silab. – Qorningni qorachig‘idan aylanay, tegib bo‘lmaydi. Bu non Oltmishvoy akangniki.

...O‘sha birinchi qor tushgan kuni Habiba buvini oxirgi marta ko‘rayotganimni bilmagan ekanman. Hali yangi yil kelmasidan ketma-ket qor yog‘ib qahraton sovuq boshlandi. Shunday kunlardan birida ertalabki choydan keyin onam to‘satdan so‘rab qoldi.

– Ermon buvangnikiga borib kelamizmi?

Quvonib ketdim. Ermon buvanikiga bo‘ladi-yu, yo‘q deymanmi!

– Shinni yeyishgami? – dedim hovliqib.

Onam ohista bosh chayqadi.

– Yo‘q. Habiba buvi zotiljam bo‘p qopti. O‘tini yo‘qmish. Ko‘mir oborib beramiz.

Lekin Habiba buvi tuzalmadi... Indini ertalab ishga ketgan dadam yarim yo‘ldan qaytib keldi. Ukamni tizzasiga o‘tkazib choy ichirayotgan oyim hayron bo‘lib dadamga qaradi:

– Tinchlikmi? – dadam negadir ko‘zini yashirdi:

– Odamzodning ahvoli shu ekan-da, – dedi xo‘rsinib. – Habiba buvi omonatini topshiribdi.

Dadam, uning ketidan ukamni ko‘targan oyim, uning ketidan men Ermon buvanikiga yugurdik. Birpasda tumonat odam to‘planibdi. Zebi xola u yoqdan-bu yoqqa yugurgan. Isroil mo‘ylov hovlidagi qorni kuragan, Sepkilli xola bilan Kelinoyi “voy onamlab” yig‘lashgan...

Ermon buva kimni ko‘rsa javdirab qaraydi. Yaktagining delvagay yoqasidan ko‘rinib turgan oppoq tuk bosgan ko‘ksiga mushtlagancha ovozi yanayam ingichkalashib, nuqul bitta gapni qaytaradi:

– Bittagina bolasini ko‘rolmay ketdi-ya! Oltmishvoyning diydoriga to‘yolmay ketdi-ya!

Doim odamlarga buyruq berib o‘rganib qolgan brigadir Haydar shamol ham tut tagida cho‘kkalab o‘tirgancha peshanasiga mushtlab yig‘laydi.

– Voy onam-a! Ro‘shnolik ko‘rmagan onam-a!

Habiba buvining yigirmasiga Ermon buva sigirini sotdi. Dadamning aytishiga qaraganda, Haydar shamol o‘rtaga tushib, shu ishni qilmang, desa ham Ermon buva ko‘nmapti. “Kampirim bechora dunyoga kelib nima ko‘rdi. Hech bo‘lmasa o‘zi ko‘rmaganni arvohi ko‘rsin, Oltmishvoyim kelganida amallab boshqa sigir olarmiz”, debdi. Sigirni Dalavoy suv tekinga sotib olganmish...

Xuddi o'sha ma'arakadan uch kunmi-to'rt kun keyin g'alati voqea bo'ldi. Yakshanba bo'lsa kerak, dadam ham, akalarim ham uyda edi. Bir mahal hovli tomonda gurji kuchugim bir-ikki akilladi-yu, negadir jimib qoldi. To'satdan eshik ochildi. Ostonada yaktak kiyib olgan Ermon buva paydo bo'ldi. Tashqarida qor yog'ayotgan bo'lsa kerak, uning yalang boshi, yaktagining yelkasi qorga ko'milgan edi. Qiziq, qo'lida hassa yo'q. U ostona hatlab chiqqanidan keyingina oyoqyalang ekanini ko'rdim. Uning katta-katta oyoqlari qip-qizil go'sht bo'lib ketgan, negadir lozimining pochasini qayirib olgan, to'pig'igacha qoplagan tuklariga kir qor yopishib qolgan edi. Dadam bilan akalarim ham, oyim bilan men ham hayratdan qotib qoldik.

– Oltmishvoyim keldi, – dedi Ermon buva iljayib. – Keldi! Kampirim ham keldi. Ikkovlari mozor boshiga ketishdi.

Oyimning yuziga bir zum tabassum qalqidi-yu, keyin dahshat ichida dadamga qaradi.

– Keldi, – dedi Ermon buva tag'in g'alati iljayib. Keyin o'ng qo'li bilan chap qo'lini dutor qilib cherta boshladi. – Tolda chumchuq sayraydi, ko'rsam ko'nglim yayraydi...

### **21-savol. Savolni o'qing va faqat bitta to'g'ri javobni tanlang.**

“Dunyoning ishlari” qissasidan olingan ushbu parcha haqida berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri?

- A) Parchada so'nggi nafasigacha farzandini umid bilan kutgan ona obrazi tasvirlangan.
- B) Parchada farzandi urushdan qahramon bo'lib qaytgan otaning quvonchi aks etgan.
- C) Parchada befarzand er-xotinning iztiroblari ta'sirli ochib berilgan.
- D) Parchada farzandidan yolg'on qoraxat olgan ota-ona tasvirlangan.

### **22-savol. Savolni o'qing va faqat bitta to'g'ri javobni tanlang.**

“Dunyoning ishlari” qissasidan olingan ushbu parchada Azov dengizining nomi Ermon buvaning nutqida “Azob dengiz” deya tilga olinadi. Ushbu nutqiy ifoda muallifning qanday badiiy maqsadini amalga oshirishga xizmat qilgan?

- A) Ermon buva ushbu dengizning asl nomini to'g'ri anglamaganligini ifodalash uchun xizmat qilgan.
- B) Ermon buva farzandi behad azobda ekanligini his qilayotganligini ta'kidlash uchun xizmat qilgan.
- C) Ermon buva va Habiba buvining befarzand yashab, tirnoqqa zor o'tayotgani behad azob ekanligini ifodalash uchun xizmat qilgan.
- D) Oltmishvoyni komandiri qattiq azoblayotganini bo'rttirish uchun xizmat qilgan.

**23-25-savollar.** Har bir jumla uchun quyidagi jadvalda ko'rsatilgan mos gap yakunini (A-E) toping

**Diqqat! Javoblardan 2 tasi ortiqcha.**

<b>23-savol.</b> Ermon buva	A) ... qoraxat kelganiga qaramay urushdan qahramon bo'lib qaytib keladi.
<b>24-savol.</b> Habiba buvi	B) ... umr yo'ldoshining ma'rakalarinin dabdabali o'tkazish uchun sigirini katta pulga sotadi.
<b>25-savol.</b> Oltmishvoy	C) ... boshiga tushgan musibat sabab aqldan ozib qoladi. D) ... dengiz harbiy kuchlari safida nemislarga qarshi kurashadi. E) ... yolg'iz farzandi emas, begonalar tomonidan qabrga qo'yiladi.

**26-savol.** Savolni o'qing va faqat bitta to'g'ri javobni tanlang.

Habiba buvining devorga osilgan qotgan nonni boladan qizg'anishining asl sababi nima?

- A) Bu non ona uchun oilaning barakasi hisoblanardi.
- B) Bu non onaga farzandidan qolgan yagona yodgorlik edi.
- C) Bu non ona uchun ocharchilik paytidagi ne'mat timsoli edi.
- D) Bu non onaning farzandi qaytishiga umid ramzi edi.

**27-savol.** Savolni o'qing va faqat bitta to'g'ri javobni tanlang.

Ermon buva: "Bunaqa yigitni xudo bitta yaratgan-u, qolipini sindirib tashlagan!" – degan maqtovini o'g'lining qaysi xususiyatini ifodalash uchun qo'llaydi?

- A) Oltmishvoyning dushmandan qo'rqmaydigan, jasur ekanligini bo'rttirish uchun
- B) Oltmishvoyning oilada yolg'iz farzand ekanligini ta'kidlash uchun
- C) Oltmishvoyning boshqalarga o'xshamasligi, o'zgacha ekanligini bildirish uchun
- D) Oltmishvoyning bolaligidan sog'lom yigit bo'lib ulg'ayganini aytish uchun

**28-savol.** Savolni o'qing va faqat bitta to'g'ri javobni tanlang.

Parchadagi qaysi jumla Ermon buvaning Oltmishvoy tirikligi haqidagi so'nggi umidini aks ettiradi?

- A) "Oltmishvoyga aytib turaman, o'zi yozadi."
- B) "Ammo mening Oltmishvoyim azobdan qo'rqmaydi".
- C) "Mana, Oltmishvoyim keldi-ku, giroy bo'lib kirib keldi-yu, diyman".
- D) "Oltmishvoyim kelganida amallab boshqa sigir olamiz".



## 2- qism

Matnni o‘qing va 29-34-savollarda to‘g‘ri javobni belgilang.

### GUL BIR YON, CHAMAN BIR YON

Chaman ichinda bir gul, gul bir yon, chaman bir yon,  
Sarv-u sanobarmidir – soch bir yon, suman bir yon,  
Sahar, subhi sodiqda mushk bir yon, mujgon bir yon,  
Tun pardasin tortsa gar, oy bir yon, osmon bir yon.  
O‘sgan bog‘iga olqov, o‘stirgan bog‘boniga,  
Xavf-u xatardan saqlab kelgan **soyaboniga**,  
Andalib qo‘nar, zog‘lar qo‘nolmas bo‘stoniga,  
Maqtoviga men bir yon, borliq suxandon bir yon.  
Hakim zoti bor yerda dard bir yon, darmon bir yon,  
Yoring jafokash bo‘lsa, uy bir yon, zindon bir yon,  
Ikki jon bir bo‘lmasa, sham bir yon, shamdon bir yon,  
Ayri bo‘lsa yo‘llari, tug‘ bir yon, qalqon bir yon.  
Bu olamda Oy tanho, muborak Quyosh tanho,  
**Bo‘y qizlarning** ichinda bir shu egma qosh tanho.  
Uningdek hech kim menga bo‘lmasa sirdosh tanho,  
Go‘ro‘g‘li sulton bir yon, To‘ra Sulaymon bir yon.

**(To‘ra Sulaymon)**



**29-savol.** Savolni o‘qing va faqat bitta to‘g‘ri javobni tanlang.

She’rda ajratib ko‘rsatilgan **soyabon** so‘zi shoirning qanday badiiy maqsadini ifodalash uchun xizmat qilgan?

- A) bog‘dagi andalib va zog‘lar soyabonga qo‘na olmasligini tasvirlash uchun
- B) har qanday xavf-u xatardan oddiy soyabon yordamida panoh topish mumkinligini ifodalash uchun
- C) har qanday mushkul damda panoh istash mumkin bo‘lgan, himoyalaguvchi zot haqida tasavvur berish uchun
- D) har qanday bog‘bon o‘z bog‘ida soyabon o‘rnatishi lozimligini ta‘kidlash uchun

**30-savol.** Savolni o‘qing va faqat bitta to‘g‘ri javobni tanlang.

She’rdagi **bo‘y qizlar** so‘z birikmasining ma’nosi to‘g‘ri izohlangan javobni belgilang.

- A) bo‘yi uzun
- B) xushbo‘y hidli
- C) qaddi-qomati kelishgan
- D) balog‘atga yetgan

**31-34-savollar.** Berilgan izohlar va shu izoh tegishli bo‘lgan misralarni (A, B, C, D, E, F) o‘zaro moslashtiring.

**Diqqat!** Javob variantlarida ortiqcha ma’lumot mavjud.

<p><b>31-savol.</b> Bu misrada ma’no ko‘chishining sinekdoxa usulidan foydalanilgan.</p> <p><b>32-savol.</b> Bu misrada yaxshi farzand oilasiga rahmat olib kelishi ramziy ifodalangan.</p> <p><b>33-savol.</b> Bu misrada haqiqiy tabibning bemorga shifo bag‘ishlashi tasviri keltirilgan.</p> <p><b>34-savol.</b> Bu misrada yorning qad-qomati mumtoz usulda tashbeh qilingan.</p>	<p>A) O‘sgan bog‘iga olqov , o‘stirgan bog‘boniga</p> <p>B) Sarv-u sanobarmidir – soch bir yon, suman bir yon</p> <p>C) Go‘ro‘g‘li sulton bir yon, To‘ra Sulaymon bir yon.</p> <p>D) Bo‘y qizlarning ichinda bir shu egma qosh tanho.</p> <p>E) Bu olamda Oy tanho, muborak Quyosh tanho</p> <p>F) Hakim zoti bor yerda dard bir yon, darmon bir yon</p>
--	--

### 3-qism

Quyidagi gʻazalni oʻqing va 35-40-savollarga javob bering.

1. Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,  
Seli gʻamdin bu imorat boʻldi vayron oqibat.
2. Qildi choki piyrahan dogʻi dilimni oshkor,  
Qolmadi koʻnglimda zaxmi ishq pinhon oqibat.
3. Ahd-u paymonlar qilib erdi: «Vafo qilgʻum», – debon,  
Ayladi tarki vafo ul ahdi yolgʻon oqibat.
4. Orzu qildim: «Tutarmen», – deb visoli domanin,  
Pora boʻldi hajr ilgida giribon oqibat.
5. Zohido, ishq-u muhabbat ahlini maʼzur tut,  
Yor koʻyida na boʻldi Shayx Sanʼon oqibat?
6. Baski, qon boʻldi yurokim gavhari ashk oʻrniga,  
Qatra-qatra koʻzlarimdin tomdi marjon oqibat.
7. Ohkim, boʻldi yana subhi nashotim shomi gʻam,  
Chehra pinhon etti ul Xurshidi tobon oqibat.
8. Garchi bor erdi musaxxar devlar farmonida,  
Poymoli xayli moʻr oʻldi Sulaymon oqibat.
9. Nodira, bulbul kabi to nola insho ayladim,  
Navbahor oʻtti, xazon oʻldi guliston oqibat.

**35-savol.** Ushbu gʻazal haqidagi toʻgʻri maʼlumotni belgilang.

**Diqqat!** Javob variantlarida bir nechta toʻgʻri javob boʻlishi mumkin.

- A) Gʻazalda sadoqat haqidagi vaʼdasiga vafo qilmagan aldamchi yor tasviri berilgan.
- B) Gʻazalda mumtoz adabiyotda goʻzallik ramzi hisoblangan paygʻambar nomi keltirilgan.
- C) Gʻazalda Shayx Sanʼon ishq-muhabbatsiz umr kechirganligi tasvirlangan.
- D) Gʻazal mazmunan muallifning shaxsiy hayotidagi fojia bilan bogʻliq.
- E) Gʻazalda Sulaymonni boʻysundirgan devlarning chumolilar oyogʻi ostida poymol boʻlgani tasviri berilgan.

**36-40-savollar.** Quyidagi baytlar va mos keladigan izohlarni moslashtiring.

**Diqqat!** Javob variantlarida ortiqcha maʼlumotlar mavjud.

<b>36-savol.</b> 1-bayt	<b>A)</b> Bu baytda qimmatbaho tosh nomi vositasida tashbeh sanʼati yuzaga keltirilgan.
<b>37-savol.</b> 2-bayt	<b>B)</b> Bu baytdagi misralar a-a tarzida qofiyalangan.
<b>38-savol.</b> 4-bayt	<b>C)</b> Bu baytda abgor holati tufayli qalbidagi ishq jarohatini yashirin tuta olmagan oshiq holati tasvirlangan.
<b>39-savol.</b> 6-bayt	<b>D)</b> Bu baytda oshiqning holati etak va yoqa soʻzlari asosidagi zidlantirish, yaʼni tazod orqali tasvirlangan.
<b>40-savol.</b> 9-bayt	<b>E)</b> Bu baytda paygʻambar nomi bilan talmeh sanʼati yuzaga kelgan.
	<b>F)</b> Bu baytda oshiq oʻzining hijronda qolgan holatini kuz fasliga qiyoslaydi.
	<b>G)</b> Bu baytda oshiqning hijron imorati vasl sabab vayron boʻlgani ifodalangan.

### **III BO‘LIM. YOZMA SAVODXONLIK**

**Mazkur bo‘lim 2 qismdan iborat:**

**1 qism:** 41-50-savollar

**2 qism:** 51-52-topshiriqlar

**Tavsiya etilgan umumiy vaqt:** 1 soat

Ushbu test topshiriqlari kitobidan qoralama sifatida foydalanish mumkin.

Belgilangan vaqt ichida javoblar varag‘iga javoblaringizni ko‘chiring.

Javoblar varag‘iga javoblaringizni ko‘chirish uchun qo‘shimcha vaqt berilmaydi.

## 1-qism

**41-50-savollar.** Quyidagi matnni o'qing va nuqtalar o'rniga mos so'zni tanlang.

Har bir savol uchun A, B, C, D javoblardan faqat bitta to'g'ri javobni tanlang.

Farzanddan **41. ...** vaqt va muloqot keyinchalik o'z asoratini namoyon qiladi: bola endi **42. ...** unga vaqti yo'q ekanligini chuqur his etadi. **43. ...**, oiladan uzoqlashish va o'z savollariga javobni atrofdagi begonalardan qidirish **44. ...** paydo bo'ladi. O'zimiz sezmagani kichik bir **45. ...** tufayli farzand kelajagini boy berib qo'yishimiz mumkin. Muloqot ham mehrning bir ko'rinishidir. O'zingda bo'lmagan buyumni yaqin va begona qo'ni-qo'shnidan izlaganing kabi farzand ham ota-onadan topmagan mehr va muloqotni o'zgalardan izlaydi. Odatda, **46. ...** davriga qadar farzand ota-onasini hammadan yuqori qo'yadi, bu **47. ...** saqlab qolish har jihatdan oila muhitiga, ya'ni o'zimizga bog'liq.

Yoshlar tajribasizligi va qiziquvchanligi tufayli tashqi ta'sirga tez beriluvchan bo'lishadi. O'zlari uchun yangi va notanish ma'lumotlarni **48. ...** bilan o'zlashtirib ijtimoiy hayotga olib kirishga, **49. ...** qilishga shoshiladilar. Hozirda farzandlarimizning ongiga ta'sir ko'rsatuvchi axborot vositalari har qachongidan ko'paygan. Shuning uchun **50. ...** internet, ijtimoiy tarmoqlar bilan aloqasini tartibga solib, alohida nazoratni amalga oshirish foydadan xoli emas.

41.	A)	qizg'anilgan	B)	qizg'onadigan	C)	qizg'anish	D)	qizg'onib
42.	A)	kattalarni	B)	kattalardan	C)	kattalarning	D)	kattalarda
43.	A)	odamiylik	B)	odamzod	C)	odamgarchilik	D)	odamovilik
44.	A)	maqsadi	B)	istagi	C)	tilagi	D)	orzuyi
45.	A)	aybdorlik	B)	yetishmovchilik	C)	tushunmovchilik	D)	xatolik
46.	A)	o'smirlik	B)	kattalik	C)	bolalik	D)	yoshlik
47.	A)	yuqorilikni	B)	buyuklikni	C)	ustuvorlikni	D)	ulug'vorlikni
48.	A)	bir zumda	B)	zudlik	C)	tezda	D)	darrov
49.	A)	tavsif	B)	tasdiq	C)	targ'ib	D)	taklif
50.	A)	yoshlarimizni	B)	yoshlarimiz	C)	yoshlarimizga	D)	yoshlarimizning

## 2-qism

**51-topshiriq.** Quyida berilgan vaziyat asosida rasmiy hujjat matnini yarating.

Siz yaqinda davlat tashkilotiga ishga kirdingiz. Oilaviy muammolaringiz sababli ish haqi saqlanmagan holda o'z hisobingizdan ta'til olishingiz zarur.

Tashkilotingiz rahbariga ariza bilan murojaat qiling.

**Arizangizda:**

- maqsadingizni bayon qiling;
- muammo tafsilotlarini yoritib;
- o'z hisobingizdan ta'til so'rang.

**52-topshiriq.** Quyida berilgan vaziyat asosida esse yozing.

Ko'pchilik odamlar zamonaviy musiqa yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin deb hisoblashadi. Ba'zi odamlar esa zamonaviy musiqaning insonlarga ta'sirini ijobiy deb o'ylashadi.

Ushbu fikrlarga o'z munosabatingizni yozma holda bildiring. Bayon qilayotgan fikrlaringizni hayotiy misollar bilan dalillang.

Essening hajmi 200-250 ta so'z atrofida bo'lishi lozim.

**TEST SINOVI YAKUNLANDI!**

**DIQQAT!!!**

**BARCHA JAVOBLARINGIZNI MAXSUS JAVOBLAR VARAQASIGA YOZISHINGIZ  
KERAKLIGINI UNUTMANG.**

**TEST TOPSHIRIQLARI KITABI VA JAVOBLAR VARAQASI GURUH  
NAZORATCHISIGA TOPSHIRILISHI LOZIM .**

**AGAR SIZ BARCHA TEST TOPSHIRIQLARINI BELGILANGAN VAQTDAN AVVAL  
BAJARGAN BO'LSANGIZ, ILTIMOS, QO'LINGIZNI KO'TARING VA GURUH  
NAZORATCHISINI XABARDOR QILING.**